



DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18358796>

O'quv jarayonida innovatsion texnologiyalar orqali assotsiativ fikrlashni rivojlantirish

Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna –

Farg'ona davlat universiteti

“Boshlang'ich ta'lim uslubiyoti” kafedrasida dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: zn.ortiqova@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-2797-0512>

Annotatsiya. Ushbu maqolada innovatsion texnologiyalar yordamida o'quvchilarda assotsiativ fikrlashni rivojlantirish masalalari yoritilgan. Bugungi tezkor raqamli davrda ta'lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish o'quvchilarning tafakkurini faollashtirish, ularni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo'naltirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Maqolada interaktiv metodlar, raqamli ilovalar va multimedia vositalari orqali assotsiativ fikrlashni shakllantirish bo'yicha tavsiyalar va tajribaviy yondashuvlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: assotsiativ fikrlash, innovatsion texnologiyalar, ta'lim jarayoni, metodika, ijodkorlik, axborot texnologiyalari, interaktiv usullar, fikrlash faoliyati.

Развитие ассоциативного мышления через инновационные технологии в учебном процессе

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы развития ассоциативного мышления у учащихся с использованием инновационных технологий. В условиях стремительно развивающегося цифрового общества внедрение современных технологий в образовательный процесс способствует активизации мышления учащихся и формированию у них самостоятельного и креативного подхода к обучению. В статье приведены рекомендации и практические подходы по формированию ассоциативного мышления с помощью интерактивных методов, цифровых приложений и мультимедийных ресурсов.

Ключевые слова: ассоциативное мышление, инновационные технологии, образовательный процесс, методика, креативность, информационные технологии, интерактивные методы, мыслительная деятельность.

Developing associative thinking through innovative technologies in the learning process

Annotation. This article discusses the development of associative thinking in students through the use of innovative technologies. In today's rapidly evolving digital era, the integration of modern technologies into the educational process plays a vital role in stimulating students' thinking and fostering independent and creative approaches to learning. The article provides recommendations and practical approaches for enhancing associative thinking using interactive methods, digital applications, and multimedia tools.

Keywords: associative thinking, innovative technologies, educational process, methodology, creativity, information technology, interactive methods, cognitive activity.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlar, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ta'lim jarayonining asosiy maqsadi o'quvchining fikrlash salohiyatini rivojlantirish, uni ijodkor, mustaqil va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllantirishdan iborat. Shu nuqtai nazardan, assotsiativ fikrlash o'quvchilarni yangi g'oyalar yaratishga, muammolarga turlicha yondashishga va bilimlarni bir-biri bilan bog'lashga o'rgatadigan muhim ko'nikma sifatida alohida e'tiborni talab qiladi. Assotsiativ fikrlash, o'z navbatida, tasavvurlar, obrazlar va oldingi bilimlar orasida samarali bog'lanish hosil qilish qobiliyatini ifodalaydi va o'quvchilarning kreativ salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda o'qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish ta'lim sifatini oshirish va o'quv jarayonini samarali tashkil etishning muhim sharti hisoblanadi. Har bir ta'lim muassasasida faoliyat yuritayotgan pedagog nafaqat o'z sohasini chuqur bilishi, balki innovatsion o'qitish metodlari va texnologiyalaridan samarali foydalanish orqali o'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha yuqori pedagogik kompetensiyaga ega bo'lishi lozim. Shu bilan birga, faol o'qitish omillarini qo'llash, yangi pedagogik vositalarni tatbiq etish, o'quvchilarni faol ishga chorlash va turli o'qitish metodlaridan maqsadga muvofiq foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Shu munosabat bilan, o'quv jarayonida innovatsion texnologiyalar orqali assotsiativ fikrlashni rivojlantirish masalasi zamonaviy ta'limda dolzarb va ilmiy ahamiyatga ega mavzu sifatida qaraladi. Bu jarayon o'quvchilarning analitik va kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, ularni mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatish hamda ta'lim jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Assotsiativ fikrlash inson tafakkurining muhim ko'rinishlaridan biri bo'lib, u bir fikr yoki tasavvurdan boshqasiga o'tish jarayoni orqali sodir bo'ladi (Vygotskiy, 1991; Piaget,

1972). Ushbu fikrlash turi ijodkorlikni, tez va samarali qarorlar qabul qilishni, nutq madaniyati va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish qobiliyatini shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi. Pedagogik jarayonda assotsiativ fikrlashni rivojlantirish, ayniqsa boshlang'ich va o'rta ta'lim bosqichlarida, o'quvchilarning analitik va kreativ salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi (Arnold, 2010; Milbrath & Gershwin, 2008).

Hozirgi ta'lim tizimida o'quv jarayonini samarali tashkil etishda interfaol metodlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu metodlar o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi faol muloqotni rag'batlantiradi, o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtiradi va shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi (Epstein, 2011). Interfaol metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, sog'lom muloqot va o'z fikrini asoslab himoya qilish ko'nikmalari shakllanadi. Shu bilan birga, diqqatni dars mavzusining asosiy masalalariga jalb qilish, munozara va bahs olib borish qobiliyatlarini rivojlantirish hamda o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi (Ismoilova, 2019; Karimova, 2021).

Innovatsion texnologiyalar assotsiativ fikrlashni rivojlantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Jumladan:

- *Interaktiv taqdimotlar* (PowerPoint, Canva, Genially) orqali mavzularni obrazli tushuntirish;
- *Vizual xaritalar va "mind mapping"* yordamida fikrlar orasida bog'lanishlar hosil qilish;
- *Multimedia darslar* video, audio va animatsiyalar orqali ko'p kanalli ta'sir yaratish;
- *O'yinli texnologiyalar* gamifikatsiya elementlari yordamida mantiqiy-assotsiativ fikrlashni rag'batlantirish;
- *Sun'iy intellektli yordamchilar* chatbotlar va savol-javob tizimlari orqali erkin fikrlashga undash.

Shuningdek, assotsiativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar mavjud:

- Erkin assotsiatsiya mashqlari berilgan so'zga birinchi kelgan so'zlarni aytish;
- Tasvir asosida hikoya tuzish rasm asosida bog'langan hikoya yaratish;
- Kreativ yozuv (creative writing) mavzuga aloqador erkin matn yozish;
- Savol-javob klasterlari savollar atrofida fikrlar tarmoqlari yaratish;
- Obrazli fikrlash topshiriqlari o'xshatish, metafora va allegoriyalardan foydalanish.

Amaliy misollarda bu metodlarni quyidagicha qo'llash mumkin: masalan, "Bahor" mavzusida o'quvchilarga bog'liq so'zlarni aytish va ulardan hikoya tuzish topshirig'i beriladi. Bu o'quvchilarning assotsiativ tafakkuri, ifoda qilish va fikrlar orasida o'tish qobiliyatini rivojlantiradi.

Shuningdek, zamonaviy interfaol metodlardan biri sifatida "Kubik" grafik organayzeri va "Olmos" texnologiyasi keng qo'llaniladi. Kubik organayzeri mavzuni olti tomonlama tahlil qilishni ta'minlaydi: tasvirlash, taqqoslash, izohlash, tahlil qilish, qo'llash va asoslash orqali o'quvchilarning muammo yechish va kreativ fikrlash ko'nikmalari rivojlantiriladi (Shamsiev, 2017). "Olmos" texnologiyasi esa mavzuga doir tushunchalarni ahamiyatlilik darajasiga qarab tasniflash va muhokama qilish imkonini beradi, bu esa o'quvchilarning analitik va assotsiativ fikrlashini mustahkamlaydi.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili va amaliy metodlar shuni ko'rsatadiki, innovatsion texnologiyalar va interfaol yondashuvlar assotsiativ fikrlashni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi, va u pedagogik jarayonda bolalarning ijodiy, tanqidiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi (Vygotskiy, 1991; Arnold, 2010; Milbrath, Gershwin, 2008; Epstein, 2011).

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quv jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash assotsiativ fikrlashni rivojlantirishda sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Interfaol va multimediya usullarini tatbiq etish orqali o'quvchilarning fikrlash jarayoni faollashadi, ularning ijodiy salohiyati, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati va tahliliy fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi. Tadqiqot davomida o'quvchilarda quyidagi o'zgarishlar kuzatildi:

Mustaqil va ijodiy fikrlashning rivojlanishi: interaktiv taqdimotlar, vizual xaritalar va "mind mapping" texnologiyalari yordamida o'quvchilar berilgan mavzuni turli nuqtai nazardan tahlil qila boshladi, bir fikrdan boshqasiga erkin o'tish va bog'lanish qobiliyati oshdi. Bu esa assotsiativ fikrlashning eng muhim ko'rsatkichidir.

Axborotni qabul qilish va tahlil qilish ko'nikmalari: multimedia darslar, video va animatsiyalar orqali taqdim etilgan ma'lumotlar o'quvchilarning diqqatini mavzu asosiy masalalariga jalb qildi va ularning tahliliy tafakkurini rivojlantirdi. Shu bilan birga, o'quvchilar ma'lumotni turli manbalardan qabul qilish va ularni o'zaro bog'lash imkoniyatiga ega bo'ldi.

Nutq va ifoda madaniyatining oshishi: erkin assotsiatsiya mashqlari, tasvir asosida hikoya tuzish va kreativ yozuv topshiriqlari o'quvchilarning o'z fikrini aniq va ravon ifodalash, mantiqiy bog'lanishlarni yaratish va fikrlarni tizimli ravishda bayon etish ko'nikmalarini mustahkamladi. Shu bilan birga, o'quvchilarning bahs va munozara jarayonlarida ishtiroki oshdi, bu esa ularning kommunikativ salohiyatini rivojlantirdi.

Faollik va motivatsiyaning oshishi: O'yinli texnologiyalar va gamifikatsiya elementlari darslarni qiziqarli va interfaol qildi. Bu esa o'quvchilarda faol ishtirokni rag'batlantirdi, ularni o'qish jarayonida yangi bilimlarni mustaqil kashf qilishga undadi.

Tanqidiy fikrlash va muammolarni yechish qobiliyati: "Kubik" grafik organayzeri va "Olmos" texnologiyasi yordamida o'quvchilar mavzuni turli qirralardan tahlil qilishni o'rgandilar. Ular bir muammoni ko'p tomonlama baholash, muqobil yechimlarni taklif qilish va ularni asoslab himoya qilish ko'nikmalarini rivojlantirdi. Bu esa pedagogik jarayonda muammoni yechish va tanqidiy tafakkurni shakllantirish uchun muhim shart bo'ldi.

Innovatsion texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarda faqatgina bilimlarni o'zlashtirishni oshirib qolmay, balki ularning ijtimoiy-emosional rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, interfaol mashg'ulotlar va guruh ishlari o'quvchilar orasida hamkorlik va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirdi, o'zaro fikr almashish va muammolarni birgalikda yechish qobiliyatini mustahkamladi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar pedagoglar uchun ham ta'lim jarayonini sifatli va samarali tashkil etishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchi darsni interaktiv va vizual tarzda tashkil etish orqali o'quvchilarning qiziqishini uyg'otadi, ularning bilimlarni o'zlashtirish jarayonini kuzatadi va individual yondashuvni amalga oshiradi. Shu bilan birga, texnologiyalar o'qituvchilarga o'quvchilarning qobiliyatlarini baholash va assotsiativ fikrlash ko'nikmalarining rivojlanish darajasini aniqlash imkoniyatini beradi.

Assotsiativ fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion metodlar va texnologiyalar ta'lim jarayonini nafaqat samaraliroq, balki ijodiy va qiziqarli qiladi. Shu bilan birga, o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahliliy va ijodiy ko'nikmalarini shakllantirish, ularni turli muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilishga o'rgatish mumkin bo'ladi. Tadqiqot shuni ham ko'rsatdiki, metodlarni tanlashda yosh xususiyatlarini, mavzu murakkabligini va pedagogik maqsadlarni hisobga olish zarur. Innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish o'quv jarayonida assotsiativ fikrlashni samarali rivojlantirish imkonini beradi va pedagogik jarayonda bilimlarni qabul qilish, tahlil qilish, ijodiy fikrlash va nutq madaniyatini rivojlantirishni birlashtiradi. Bu esa zamonaviy ta'limda o'quvchilarning kompleks rivojlanishiga xizmat qiluvchi asosiy vosita sifatida ahamiyatini oshiradi.

XULOSA

Assotsiativ fikrlashni rivojlantirish – zamonaviy ta'limning muhim vazifasidir. Innovatsion texnologiyalar bu jarayonni jonlantiradi, o'quvchilarda ijodkorlik va tanqidiy tafakkurni rivojlantiradi. O'qituvchi vazifasi bunday yondashuvlarni darsda to'g'ri qo'llab, o'quvchilarda mustaqil fikr.

Ta'kidlash lozimki, interfaol ta'lim metodlari O'zbekistonda qadimzamonlardanberi ta'limtarbiya jarayonida o'qituvchi bilan ta'lim oluvchilar hamda talabalar (o'quvchi) bilantalaba(o'quvchi)lar o'rtasida muhokama, munozara, muzokara, mushohada, tahlil, mashvarat, mushoira,mutolaa kabi shakllarda qo'llab kelingan. Xulosa qilib aytish mumkinki, interfaol metodlar bir vaqtda bir nechta masalalarni hal etishimkoniyatini beradi. Asosiysi o'quvchilarning muloqot olib borish bo'yicha ko'nikma va malakalarinirivojlantiradi, o'quvchilar orasida emostional aloqalar o'rnatilishiga yordamberadi, ularni jamoatarkibida ishlashga, o'z o'rtoqlarining fikrini tinglashga o'rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta'minlab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A.A.Xoliqov X-72 Pedagogik mahorat Oliy va o'rta maxsus ta'limvazirligi. Darslik - T.: "Iqtisod-Moliya", 2011, –420 b.
2. Z.Bobokulov, S.Sanayev, X.Xonqulov Ta'limning zamonaviy pedagogik texnologiyalari. O'quv qo'llanma. Samarqand sh. 172-b
3. D.Ro'ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Xoliqova. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. Metodik qo'llanma – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013. – 108bet.
4. Madinabonu Shuxratjon qizi, Esonaliyeva Guluzra Komiljonova. Inson qadri va barkamol avlod shakllanishida pedagogikaning o'rni. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 1(1), 788-789.
5. G.Komiljonova, Fanlararo bog'lanish asosida boshlang'ich ta'limni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari. Educational Researchin Universal Sciences, 2(12), 198-201. Retrieved from
6. S.Diyoraxon, G.Komiljonova, Boshlang'ich ta'limda chetel o'quvchilarini baholash mezonlari va samarali taqdirlash. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 783-785.
7. S.Mirzaliyeva, X.Mashhura, Pedagogik texnologiyalarning vazifalari va maqsadi. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 687-689.
8. Г.Б.Сангинова Значение и место новых технологий в системе дошкольного образования. Экономика и социум, (4-1 (107)), 840-846.
9. Г.Б.Сангинова “Значение и место новых технологий в системе дошкольного образования” Экономика и социум, no. 4-1 (107), 2023, pp. 840-846.
10. N.Abduraxmonova, Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida (208-211b).